

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(53 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(53 KB\)](#)

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 dekabrda 1025-sonli “Tabiiy gaz va elektr energiyasi etkazib berish va realizatsiya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori haqida

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Elektr energiyasi va tabiiy gaz etkazib berish hamda iste`mol qilish sohasida to`lov intizomini yanada mustahkamlash, shuningdek, ijro ishi yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 2017 yil 29 maydagi PF-5059-son Farmonini va O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 noyabrda PQ-3379-sonli “Energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta`minlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarorini bajarish yuzasidan Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi**:

- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 dekabrda 1025-sonli “Tabiiy gaz va elektr energiyasi etkazib berish va realizatsiya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.
- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida qayd etilgan qarori asosida iste`molchilarning ilovaga muvofiq ayrim toifalariga 2018 yil 1 yanvardan boshlab tabiiy gaz va elektr energiyasi uchun oshirilgan tariflar belgilanganligi ma`lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
- “Qoraqalpog` hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ (Kerimzatov), “Qoraqalpog`iston gaz” filiali (Djalekeev) Qoraqalpog`iston teleradiokompaniyasi, Qoraqalpog`iston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi, shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda, shuningdek, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari vakillarini jalb etgan holda ushbu qarorning maqsadlari va mazmuni ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini tashkil etsinlar, bunda iste`molchilar tomonidan energiya resurslaridan oqilona foydalanishga, sertifikatlangan va energiya jihatidan samarali uskunalar va priborlar qo`llanilishiga alohida e`tibor berilsin.
- “O`zdavenergonazorat” (ernazarov) va “O`zdavneftgazinspeksiya” (Ubaydullaev) davlat inspeksiya korxonalarining Qoraqalpog`iston Respublikasi bo`limlari tegishli korxonalar va idoralar bilan birgalikda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida atab o`tilgan qaroriga ilovada ko`rsatilgan tashkilotlarga ular tomonidan qo`llaniladigan texnologiyalar va asbob-uskunalar energiya jihatidan samaradorlik ko`rsatkichlariga muvofiq, shuningdek, yoqilg`ining muqobil turlaridan (ko`mirdan) foydalanish to`g`risida xulosalar berilishini ta`minlasinlar.
- Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari S.Nag`metov zimmasiga yuklansin.

Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi

Q. Sariev

Ko`rib chiqildi:

- 
- 
- 

- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma`lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)